



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

No. 2

BUXORO – 2026

PRAGMATIK YONDASHUV ORQALI TALABALARNI REFLEKSIV KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Jumayeva Azizabonu Mo`min qizi,

Buxoro Davlat pedagogika instituti 1-bosqich doktoranti

Azizabonujumayeva843@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada pragmatik yondashuv asosida talabalarni refleksiv kompetensiyalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari keng tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida refleksiya talabaning o‘z-o‘zini anglash, o‘z faoliyatini baholash va kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashda muhim omil sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, pragmatik yondashuv refleksiv kompetensiyalarni shakllantirishda samarali metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv orqali talabalar nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Maqolada refleksiv kompetensiyaning tarkibiy qismlari — o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z faoliyatini baholash, tanqidiy fikrlash va o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilganlik kabi jihatlar pedagogik va psixologik nuqtai nazardan asoslab beriladi. Shuningdek, pragmatik yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonining talaba shaxsiga ta’siri, uning motivatsiyasi, bilish faolligi va mustaqil fikrlash darajasini oshirishdagi roli yoritiladi. Bundan tashqari, pedagogning yo‘naltiruvchi va fasilitatorlik roli alohida ta’kidlanib, ularning talabalarda refleksiya jarayonini shakllantirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Pragmatik yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarni nafaqat bilim olishga, balki o‘z ustida ishlashga, o‘z faoliyatini tahlil qilishga va doimiy rivojlanishga undaydi. Bu esa ularning kasbiy kompetentligini oshirish bilan birga, raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qilishini bo‘lajak ushbu maqola nazarda tutadi.

Kalit so‘zlar: pragmatik yondashuv, refleksiv kompetensiya, refleksiya, pedagogik jarayon, psixologik xususiyatlar, tanqidiy fikrlash, o‘z-o‘zini baholash, mustaqil ta’lim, interfaol metodlar, keystadi, ta’lim samaradorligi, talaba shaxsi, kasbiy rivojlanish

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ РЕФЛЕКСИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ПРАГМАТИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Джумаева Азизабону Мумин кизи,

Докторант 1-го курса Бухоро Давлат педагогика institute

Azizabonujumayeva843@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогико-психологические особенности совершенствования рефлексивных компетенций студентов на основе прагматического подхода. В современном образовательном процессе рефлексия выступает важным фактором, способствующим самопознанию студента, оценке собственной деятельности и определению направлений дальнейшего развития. В этом контексте прагматический подход служит эффективной методологической основой для формирования рефлексивных компетенций. Благодаря данному подходу студенты учатся интегрировать теоретические знания с практикой, анализировать проблемные ситуации и принимать самостоятельные решения. В статье обоснованы структурные компоненты рефлексивной компетенции, такие как самоанализ, самооценка, критическое мышление и направленность на саморазвитие, с педагогической и психологической точек зрения. Также раскрывается влияние образовательного процесса, организованного на основе прагматического подхода, на личность студента, его мотивацию, познавательную активность и уровень самостоятельного мышления. В ходе исследования рассматриваются интерактивные методы обучения, проблемное обучение, кейс-стади, рефлексивные дневники и взаимное оценивание как эффективные средства развития рефлексивных компетенций. Кроме того, особо подчеркивается направляющая и фасилитирующая роль преподавателя в формировании рефлексии у студентов. В заключение отмечается, что образовательный процесс, организованный на основе прагматического подхода, способствует не только усвоению знаний, но и формированию навыков самоанализа, саморазвития и постоянного совершенствования. Это, в свою очередь, повышает профессиональную компетентность студентов и способствует их становлению как конкурентоспособных специалистов.

Ключевые слова: прагматический подход, рефлексивная компетенция, рефлексия, педагогический процесс, психологические особенности, критическое мышление, самооценка, самостоятельное обучение, интерактивные методы, кейс-стади, эффективность обучения, личность студента, профессиональное развитие

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF IMPROVING STUDENTS' REFLECTIVE COMPETENCIES THROUGH A PRAGMATIC APPROACH

Jumayeva Azizabonu Mo'min qizi,

First-year doctoral student, Buxoro Davlat pedagogika instituti Azizabonu

jumayeva843@gmail.com

Abstract: This article examines the pedagogical and psychological features of improving students' reflective competencies through a pragmatic approach. In modern education, reflection is considered a crucial factor in fostering students' self-awareness, evaluating their own activities, and determining directions for further development. In this context, the pragmatic approach serves as an effective methodological foundation for the development of reflective competencies. Through this approach, students learn to integrate theoretical knowledge with practice, analyze problem situations, and make independent decisions. The article substantiates the structural components of reflective competence, including self-analysis, self-assessment, critical thinking, and a focus on self-development, from both pedagogical and psychological perspectives. It also highlights the impact of a pragmatically organized educational process on students' personalities, their motivation, cognitive activity, and level of independent thinking. The study explores interactive teaching methods, problem-based learning, case studies, reflective journals, and peer assessment as effective tools for developing reflective competencies. In addition, special emphasis is placed on the guiding and facilitating role of the teacher in fostering reflection among students. In conclusion, it is noted that an educational process based on a pragmatic approach not only enhances knowledge acquisition but also promotes self-analysis, continuous self-improvement, and lifelong learning skills. This ultimately increases students' professional competence and supports their development as competitive specialists.

Keywords: pragmatic approach, reflective competence, reflection, pedagogical process, psychological features, critical thinking, self-assessment, independent learning, interactive methods, case study, learning effectiveness, student personality, professional development

Bugungi kunda yuqori malakali pedagoglarni tayyorlashda pragmatik yondashuvdan foydalanish zaruriyati kuchaymoqda. Pragmatik pedagogika o'zida pedagogik jarayonlarni isloh qilish vazifasini mujassamlashtiradi. Pedagogikaning ushbu yo'nalishi doirasida ta'lim-tarbiyaga oid falsafiy yondashuvlar o'z ifodasini topadi. Shu bilan bir qatorda pedagogik vositalar, eksprementlar nazariyasi, didaktik jarayonlar taraqqiyoti, ta'lim-tarbiyaning amaliy yo'nalishlari rivojlantirishga oid nazariyalar, talabaning faol harakatlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan o'qitish metodikalari pragmatik pedagogikaning ob'yekti hisoblanadi. Pragmatizm pedagogikasiga oid nazariy yondashuvlar AQShda vujudga kelgan. Uning asoschisi esa Jon Dyu hisoblanadi.

Pedagogik pragmatizm konsepsiyasiga oid ta'limotning asosini:

1. Ta'lim oluvchilar, ularning rivojlanishi va tarbiyaviy jarayonlar tashkil etadi.
2. Ta'lim oluvchilarda shaxsiy tajribani to'planishi ular shaxsiyatining shakllanishiga asos bo'lib, bunda instrumental yondashuv zarur hisoblanadi. Mazkur yondashuv ta'lim oluvchilarning to'g'ridan to'g'ri vujudga kelgan qiziqishlari va tajribalariga tayangan holda ish ko'rishni taqozo etadi.
3. O'qitish ta'lim sub'yektining faoliyatiga tayangan holda amalga oshiriladi. Ushbu o'rinda ta'lim oluvchilarning o'yin hamda mehnat faoliyati hisobga olinadi. Oliy ta'limda tahsil olayotgan har bir talaba bunday faoliyatini tashkil etish kompetensiyasini egallashlari lozim. Chunki o'quvchining har bir harakati uning bilish faoliyatini rivojlantirish vositasi sifatida namoyon bo'lishi kerak. Shuningdek mazkur vositalar o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlarini aniqlab, tabiiy imkoniyatlari va iqtidorlarini ro'yobga chiqishga xizmat qilishi lozim. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki bugungi kunda xuddi shunday yondashuvlarni qo'llash kompetensiyasiga yetarlicha ega emaslar.
4. Bo'lajak o'qituvchilar o'quv jarayonining o'quvchilarda tafakkur qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltira olish kompetensiyasini egallashlari talab etilmoqda. Bu jarayonda o'quvchilarda hayotiy vazifalarni yechish ko'nikmalarini shakllantirish, kreativ ko'nikmalarni egallash, harakat

usullarini qo'llash haqidagi bilimlarini boyitish, mustaqil bilim olish va o'z o'zini takomillashtirish usullarini o'rgatish kompetensiyasini talabalarda tizimli tarzda shakllantirishni nazarda tutish taqozo qilinmoqda.

5. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida qo'uvchilarga ta'lim-tarbiya beruvchi muhit shakllantiriladi. Bu jarayonda asosiy vazifalardan biri murakkab hayotiy hodisalarni bartaraf etish nazarda tutiladi. Ular sirasiga ularni o'quvchilarga qulay shakllarda taqdim etish, insoniyat tajribasidagi muhim jihatlarni o'rganish uchun tanlash va o'quvchilarga yetkazish, ijtimoiy farqlarni tenglashtirishga erishish, o'quvchilar orasida yagona fikrni shakllantirish va ular faoliyatini muvofiqlashtirish kabilar kiradi.

Vilyam Kilpatrik pedagogik pragmatika doriyasida loyiha metodini ishlab chiqdi. Loyiha metodi yordamida ta'lim maqsadli tarzda amalga oshiriladi. O'quv faoliyatini amalga oshirish jarayonida ta'lim oluvchilar aniq didaktik topshiriqlarni rejasini tuzadilar, o'quvchilarning qiziqishlari va mavjud tajribasini hisobga olish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Pragmatik pedagogika g'oyasiga ko'ra ta'lim oluvchilarning rivojlanishiga ko'maklashadigan barcha g'oyalar samali foydali hisoblanadi. Mazkur g'oyalar birinchi navbatda talabalarning pedagogik faoiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Pragmatik pedagogik g'oyasiga ko'ra, jamiyat hayotini tubdan o'zgartirish uchun ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish lozim. Ta'lim jarayoni shaxsni intellektual jihatdan rivojlantirishga yo'naltirilishi kerak. Chunki jamiyat hayotining rivojlanishi uchun intellektual jihatdan yetuk mutaxassislar zarur. Ular taraqqiyotga turtki berib, tendensiyalarni jadallashtiradi va ijtimoiy tajriba ko'lamini kengaytiradi. Mazkur tendensiyalar ta'lim oluvchilar faoliyatini jadallashtirish ularda kreativ fikrlashga yo'naltirishga asos bo'lishi kerak. Bilimlarni tizimli o'zlashtirish natijasida talabada ijtimoiy faollik, muvaffaqiyat qozonishga intilish, o'quvchilar bilan hamkorlikka kirishish tajribasining tarkib toptirishi muhim ahamiyaga ega. Shunga ko'ra talabalarga taqdim etiladigan bilimlar ularni ijtimoiy pedagogik faoliyat va hayotga xizmat qilishga tayyorlashga xizmat qilishi lozim. Ta'lim muassasalari oldida turgan asosiy vazifalardan biri yoshlarga bilim berish va ularni tarbiyalash orqali ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iborat. Ta'lim oluvchilarni har tomonlama rivojlantirishda xalqning ijtimoiy tajribasi va tarixiy madaniy meros muhim o'rin tutadi. Chunki madaniy meros ta'lim oluvchilarning aqliy rivojlanishi uchun stimulyazifasini o'taydi. Madaniy meros o'quvchi hamda talaba yoshlarning ijtimoiy tajribasini kengaytirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Pragmatik topshiriqlarni bo'lajak o'qituvchilar turli shakllarda tuzish tajribasiga ega bo'lishlari taqozo qilinmoqda. O'quvchilarning faoliyati ko'pqirrali bo'lib, ularning intellektual taraqqiyotiga xizmat qilish zarurligini pragmatik topshiriqlarni tuzish jarayonida bo'lajak o'qituvchilar aniq xisobga olib bilishlari talab etiladi. Bo'lajak o'qituvchilar darslarni muayyan bir topshiriq atrofida tashkil etish kompetensiyasini egallashlari muhim ahamiyatga ega. Bunday mashg'ulotlarda o'quvchilar birinchi navbatda pragmatik topshiriqlarni topshirish rejasini tuzish bilan shug'ullanadilar. Topshiriqlarning xarakteridan kelib chiqqan holda uni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'playdilar va ular ustida ishlash ko'nikmalarini egallaydilar. Bo'lajak o'qituvchilar pragmatik topshiriqlarni o'quvchilarga taqdim etish tajribasini egallash jarayonida ularning qiziqishlari bilan bir qatorda yosh xususiyatlari bilan bir qatorda hisobga olish, yosh psixologiyasiga oid bilimlarni qo'llash tajribasini ham ega bo'lishlari lozim. O'quvchilarga taqdim etiladigan har bir pragmatik topshiriq ularning hayotiy faoliyatini rivojlantirish, amaliy ko'nikmalarini takomillashtirishni nazarda tutishi lozim... Pedagogik pragmatika uchun o'quvchi yoki talabalarning shaxsiy g'oyalarni ilgari surishlari muhim ahamiyatga ega. Buning uchun ularning ichki olamida o'ziga xos qo'zg'ashlar, intilishlar, ehtiyojlar vujudga kelishi lozim. Buning uchun o'qituvchilar yoki professor o'qituvchilar ularni muntazam nazorat qilmasliklari, balki mustaqil o'qib o'rganishlari uchun sharoit yaratishlari talab etiladi. O'quvchi yoki talabalar tashqi olamni mustaqil ravishda o'ranganida ularda o'z o'zini rivojlantirish hamda mustaqil o'qib o'rganish uchun xohish istak vujudga keladi. Atrof muhitni o'rganish asosida ta'lim oluvchilarda o'ranishga asoslangan bilish faoliyati vujudga kelib mustaqil o'qib o'rganish va izlanish imkoniyatlari kengayadi. Buning natijasida ularda atrofda gilarni o'rganish, o'z maqsadlarini shakllantirish va uni amalga oshirish yo'llarini izlash ko'nikmasi rivojlanadi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishlari uchun qimmatli va ahamiyatli bo'lgan pedagogik qadriyatlar kafolangan natijaga erishish imkonini beradi. O'quv tarbiya jarayoni nazariy ma'lumotlarni tig'izlashtirilgan holda taqdim etishdan iborat bo'libgina qolmay, muayyan amaliy faoliyatni bajarishga yo'naltiriladi. Natijada ta'lim oluvchilar faqat borliqni tanish, idrok etish bilan cheklanib qolmasdan muayyan faoliyatni amalga oshirish tajribasini ham o'zlashtiradilar. Bunday yondashuv yordamida ta'lim oluvchilar ijtimoiy hayotga samarali moslashib mikrosotsiumda munosib o'rin egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuning uchun bugungi kunda pragmatik yondashuvni

zamonaviy ta'lim jarayonida refleksiv kompetensiyalarni takomillashtirishga tadbiriq etish muhim va dolzarb sanaladi. Talabalarda refleksiv kompetensiyalarni pragmatik yondashuv asosida takomillashtirish uchun, avvalo refleksiya tushunchasini pedagogik va psixologik jihatdan tahlil qilib chiqamiz.

Zamonaviy falsafiy bilim nuqtai nazaridan refleksiya — bu insoniyatga tabiatan berilgan va insonning o'zi tomonidan rivojlantiriladigan hayot faoliyati vositasi, xususan kasbiy faoliyat vositasidir. Psixologlar ishlarida esa refleksiya nafaqat o'z harakatlarini va ularning qonuniyatlarini anglash, balki faoliyatni bajarish jarayonida maqsad qo'yish va o'zini nazorat qilishning zarur sharti sifatida ham qaraladi. Shuningdek, refleksiya shaxsiy rivojlanishdagi yangi sifatlarning mazmuniy va amaliy darajadagi dinamikasini ta'minlovchi mexanizm, muloqot jarayonida o'z pozitsiyasini, suhbatdoshning pozitsiyasi va fikrlarini anglashning muhim omili, tafakkurning ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. Shu bois psixologik nuqtai nazardan refleksiya jamiyat a'zosi bo'lgan har bir inson uchun zarur hisoblanadi. Pedagogikada refleksiya jamiyat, ilm-fan va ta'limning gumanizatsiyasi yo'llaridan biri sifatida qaraladi. Refleksiya o'quv faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadi. Yosh maktab yoshida paydo bo'ladigan yangi psixik xususiyatlardan biri bo'lishiga qaramay, u butun hayot davomida o'z muhimligini yo'qotmaydi.

O'quv faoliyati orqali talaba o'z harakat usulini ko'ra bilish, uni tahlil qilish va qo'yilgan maqsadga erishishni rejalashtirish qobiliyatini hosil qiladi. Refleksiya o'quvchining axloqiy tarbiyasiga sezilarli hissa qo'shadi: agar talaba refleksiyaga ega bo'lmasa, u tushunmovchilikni, vijdon azobini, o'zidan norozi bo'lishni, kelajakdagi harakatlar borasida ishonchsizlikni va erishilgan natijadan qoniqmaslikni his qilmas edi.

Refleksiyani o'quv dasturiga kiritishning asosiy sharti sifatida ta'lim (natija va qadriyat sifatida) hech kim yoki hech narsa tomonidan “berilishi” mumkin emasligi ta'kidlanadi. Ta'lim faqat talaba tomon o'quv faoliyatining mazmuni va tuzilmasidagi o'zgarishlarning maqbul ekanligi ta'limda kompetentlik yondashuvining keng qo'llanilishi bilan ham asoslanadi (A. A. Akhayan, V. A. Bolotov, O. E. Lebedev, L. M. Mitina, V. V. Serikov, T. I. Shamova, M. A. Kholodnaya, A. V. Khutorskiy va boshq.).

Olimlar kompetentlik yondashuvining asosiy g'oyalarini ochib berib, asosiy kompetensiyalar to'plamini taqdim etish orqali refleksiya barcha shaxsiy resurslarni hayotiy vazifalarni, jumladan professional pedagogik vazifalarni hal qilishda mobilizatsiya qilish uchun tizim shakllantiruvchi komponent ekanligini ta'kidlaydilar. Refleksivlik asosiy kompetensiyalarni egallashda shaxsning yetuklik darajasini ko'rsatadigan muhim indikator bo'lib, u shunchalik muhim xususiyatki, har bir zamonaviy mutaxassisda refleksiv kompetentlikni shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Shuning uchun o'qituvchilik kasbining ajralmas qismi pedagogik refleksiya bo'lib, unda bolalar va ota-onalarning xulq-atvori, ularning shaxslararo o'zaro ta'siri hamda o'z professional harakatlarini tahlil qilish amalga oshiriladi. Bu fikrlar B. Z. Vulfov, N. V. Kuzmina, E. V. Piskunova, V. A. Sukhomlinsky, V. N. Kharkin nazariyasiga asoslanadi. “Refleksiv kompetentlik” tushunchasi pedagogik professional faoliyatning tizim shakllantiruvchi komponenti sifatida qaraladi va shaxsning refleksiyani eng samarali va adekvat amalga oshirishini ta'minlaydigan sifat sifatida belgilanadi. Bu esa shaxsning rivojlanishi va o'zini rivojlantirishiga, o'quv va professional faoliyatda ijodiy yondashuvni qo'llashga hamda maksimal samaradorlik va natijadorlikka erishishga yordam beradi. Olimlar kompetentlik yondashuvining asosiy g'oyalarini ochib berib, asosiy kompetensiyalar to'plamini taqdim etish orqali refleksiya barcha shaxsiy resurslarni hayotiy vazifalarni, jumladan professional pedagogik vazifalarni hal qilishda tizim shakllantiruvchi komponent ekanligini ta'kidlaydilar. Refleksivlik asosiy kompetensiyalarni egallashda shaxsning yetuklik darajasini ko'rsatadigan muhim indikator bo'lib, u shunchalik muhim xususiyatki, har bir zamonaviy mutaxassisda refleksiv kompetentlikni shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Shuning uchun o'qituvchilik kasbining ajralmas qismi pedagogik refleksiya bo'lib, unda bolalar va ota-onalarning xulq-atvori, ularning shaxslararo o'zaro ta'siri hamda o'z professional harakatlarini tahlil qilish amalga oshiriladi. Bu yuzdan zamonaviy ta'limda refleksiv kompetensiyani oliy talim talabalarida takomillashtirish zarurdir. Pedagogik-psixologik asoslarini tahlil qilib o'rganish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotimiz davomida refleksiv kompetentlikning komponentlari aniqlanishida “kompetentlik” (I. Yu. Aleksashina, O. E. Lebedev, S. I. Ozhegov, A. V. Khutorskiy, T. I. Shamova), “kasbiy kompetentlik” (T. G. Brazhe, E. F. Zeer, V. V. Shapkin, M. A. Kholodnaya, M. P. Choshanova), “pedagogik kompetentlik” (O. V. Akulova, V. A. Kozyrev, M. I. Lukyanova, A. K. Markova, N. F. Radionova, A. P. Tryapitsyna) tushunchalarining turli talqinlari ko'rib chiqilmoqda..

Bizning tadqiqot mantiqimizga pedagogik kompetentlikni shaxsiy sifat sifatida qarash eng yaqin bo‘lib, u faoliyat orqali shakllanadi va bilim, ko‘nikma va malakalarni ma’lum vazifalarni yoki muammoli vaziyatlarni hal qilishda ongli qo‘llash qobiliyati bilan bog‘liq. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, terminologik farqlarga qaramay, olimlar kompetentlik strukturasi uchta komponentni: kognitiv, operatsion va shaxsiy komponentni mavjud deb hisoblashadi. Pragmatik yondashuv asosida talaba yoshlarning reflektiv kompetensiyalarini takomillashtirishning asosiy kategoriyasi — tajriba bo‘lib, u nafaqat “nima qilish”ni, balki “qanday qilish”ni o‘z ichiga olgan interiorizatsiyalashgan bilimlarni qamrab oladi. Bu esa o‘rgatilgan ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, o‘zgartirish va maqsadli o‘qitish natijasida hosil qilish imkonini beradi. Interiorizatsiyalashgan bilimlar deganda esa qimmatli asosga va shaxsiy ma’noga ega bo‘lgan, shaxs tomonidan egallangan bilimlar tushuniladi. Reflektiv kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv dunyo ta’limida dolzarb tendensiya sifatida namoyon bo‘ladi. U ta’lim natijalari borasida dasturiy talablar, jamiyatning ehtiyojlari va shaxsning istaklari o‘rtasidagi ziddiyatlarni hal qilish imkonini beradi. Zamonaviy ta’limidagi mavjud ta’limiy vaziyat o‘qituvchidan — zamonaviy psixologik-pedagogik texnologiyalarni chuqur biladigan, ijodiy shaxs sifatida yuqori darajadagi professional kompetentlikni talab qiladi. Ushbu texnologiyalar ko‘plab olimlar tomonidan kelajak mutaxassisi professional-pedagogik kompetensiyasining bir tarkibiy qismi sifatida ko‘riladigan, professional faoliyatni tahlil qilish mexanizmlariga asoslanadi — ya’ni uning reflektiv kompetensiyasiga.

Kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv doirasida olib borilayotgan tadqiqotlar ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi:

1. Umumprofessional kompetensiyani o‘rganish (V.N. Druzhinin, E.A. Klimov, T.B. Kudryavtsev va boshqalar);

2. Ayrim kasblar, xususan professional-pedagogik sohada kompetensiyani o‘rganish (A.A. Bizyaeva, B.Z. Vulfov, G.I. Davydova, G.M. Kodzhaspiriva, Yu.V. Kusheverskaya, L.S. Podymova, V.A. Slastenin, V.N. Kharkhin va boshqalar).

Ushbu olimlar kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuvning nazariy jihatlarini pedagogning amaliy faoliyatiga yaqinlashtirishga urinmoqda. Ular shuningdek, pedagoglarning professional qobiliyatlarini o‘rganishda reflektiv jarayonlar, ya’ni pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlariga bevosita bog‘liq jarayonlar ko‘pincha e’tibordan chetda qolayotganiga urg‘u berishadi. Zamonaviy tadqiqotlar professional kompetensiya masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, ular tobora ko‘proq refleksiya fenomeniga murojaat qilmoqda. Refleksiya nafaqat uning mazmuniy elementi sifatida, balki rivojlanish sharti sifatida ham ko‘rib chiqiladi. Refleksiya qobiliyat — pedagogning professionalizmi va uning umumprofessional kompetensiyasining muhim tarkibiy qismidir. Pedagogik ta’lim muassasalaridagi talabalarda professional refleksiya va reflektiv kompetensiyaning shakllanishi L.N. Borisova, N.B. Krashennikova, Yu.V. Kusheverskaya, I.A. Stetsenko, O.Yu. Shavrina, V.K. Eliseeva, L.A. Kunakovskaya, N.M. Pinegina va boshqalar tomonidan dissertatsion tadqiqotlarda o‘rganilgan.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda reflektiv qobiliyatlar professional faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning zarur sharti sifatida qaraladi (O.V. Akulova, O.G. Anisimov, I.N. Semenov, S.Yu. Stepanov va boshqalar). Interaktiv texnologiyalarning reflektiv kompetensiya rivojiga ta’siri V.A. Metaeva tomonidan ta’kidlangan. Reflektiv kompetensiya pedagogning professional-shaxsiy kompetensiyasining otarkibiy qismi sifatida N.V. Kuzmina ishlarida ochib berilgan. Reflektiv kompetensiya, shuningdek, pedagoglarning professionalizmining muhim komponenti va muvaffaqiyatli talabalar sifatining belgilovchi xususiyati sifatida xalqaro tadqiqotchilar C.J. Jones, S. Bell, C. Saddler, V.L. McCombs va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Ularning pedagogik tadqiqotlariga ko‘ra, kelajakdagi o‘qituvchining reflektiv kompetensiyasi tizimli va darajaviy tabiata ega. Uning tizimli-struktural komponentlariga quyidagilar kiradi:

- Pedagogik faoliyatning qadriyat-ma’no jihatlarini refleksiyalash: kelajakdagi o‘qituvchi pedagogik faoliyatning ahamiyati va ma’nosini, shuningdek, uning professional-pedagogik madaniyatdagi o‘rnini yaxshi anglaydi; pedagogik faoliyat qadriyatlarini axborot, emotsional va xulqiy darajalarda tushunadi va amalga oshiradi; pedagogik faoliyatning shaxsiy ma’nosini idrok etadi va boshqalar.

- Kelajakdagi o‘qituvchining professional-shaxsiy potensialini refleksiyalash: kelajakdagi o‘qituvchi ijodiy professional individual rivojlanishga yo‘naltirilgan; shaxsning rivojlangan sub’ektiv

sifatlari mavjud, professional pozitsiyasi aniq ifodalangan; nazariy-amaliy pedagogik vazifalarni mustaqil belgilash va hal etishda o'zini erkin tutadi va boshqalar.

- Professional-pedagogik mas'uliyatni refleksiylash: kelajakdagi o'qituvchi ongli va yetuk hayotiy va professional pozitsiyani namoyon etadi; professional majburiyatlarini bajarishda aniqlik va puxtalik ko'rsatadi; o'quvchilarning ta'limiy faoliyatini nazorat qilish va baholash bo'yicha rivojlangan qobiliyat va ko'nikmalarni, shu jumladan, o'zini nazorat qilish va o'zini baholash malakalarini namoyon etadi va boshqalar.

Pedagogik, amaliy refleksiya: kelajakdagi o'qituvchi o'quv mashg'ulotidagi aniq vaziyatni baholaydi va qayta tahlil qiladi, shunda tegishli qarorlar qabul qilinadi; shuningdek, o'rganilayotgan materialning egallanishini nazorat qilish usullarining samaradorligini baholaydi; pedagogik vaziyatning rivojlanishini oldindan ko'ra olish qobiliyatini namoyon etadi, belgilangan maqsad va vazifalarni tahlil qiladi, baholaydi va zarurat tug'ilganda pedagogik jarayon sharoitlari o'zgarganda ularni to'g'rilaydi.

Kelajakdagi o'qituvchining reflektiv kompetensiyasi shuningdek darajaviy tabiatga ega:

- **Adaptiv daraja:** kelajakdagi pedagog atrof-muhitga, boshqa odamlarga va o'ziga bo'lgan qadriyat-ma'no munosabatlarini anglaydi; shaxsiy yo'nalishining professional-pedagogik faoliyatga asoslangan qadriyat-ma'no asosini tushunishga harakat qiladi; pedagogik faoliyat qadriyatlarini axborot va emotsional darajalarda anglaydi; pedagogik faoliyatning shaxsiy ma'nosi, o'z pedagogik dunyoqarashi qadriyatlari va ma'nosini tushunishga intiladi; o'qituvchining faoliyatining asosiy ma'nosiga yo'naltirilgan.

- **Pragmatik (o'rta) daraja:** kelajakdagi pedagog o'quv mashg'ulotidagi aniq vaziyatni baholaydi va qayta tahlil qiladi, shunda tegishli qarorlar qabul qilinadi; pedagogik jarayon sharoitlari o'zgarganda belgilangan maqsad va vazifalarni tahlil qiladi, baholaydi va zarurat tug'ilganda tuzatadi; o'rganilayotgan materialning egallanishini nazorat qilish usullarining samaradorligini baholash qobiliyatiga ega; o'z pedagogik tajribasini tahlil qilish va baholash, shuningdek uni darsdagi o'quv vaziyatlari bilan bog'lash qobiliyatini namoyon etadi; dars davomida o'z rejalari va ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishdagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik sabablarini aniqlay oladi; dars davomida o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlash jarayonida o'z pedagogik faoliyat usullarini tushunadi; pedagogik vaziyatning rivojlanishini oldindan ko'ra olish qobiliyatini namoyon etadi.

- **Integrativ (yuqori) daraja:** kelajakdagi pedagog ijodiy professional individual rivojlanishga yo'naltirilgan; shaxsning rivojlangan sub'ektiv sifatleri mavjud, professional pozitsiyasi aniq ifodalangan; nazariy-amaliy pedagogik vazifalarni mustaqil belgilash va hal etishda erkin; o'z professional-pedagogik faoliyatini reflektiv baholash qobiliyatiga ega; o'quv-tarbiya jarayonida individual-shaxsiy yondashuvni tushunadi va samarali amalga oshiradi; hayotda va pedagogik faoliyatda o'zini rivojlantirishga mustahkam intilishi mavjud; pedagogik kasbda o'zini namoyon etishga kuchli intilishi bor; ijodiy yo'naltirilgan professional vazifalarni amalga oshirishda ongli qat'iyatni ko'rsatadi.

Refleksiyaning paydo bo'lishining asosiy sharti — faoliyatdagi qiyinchilik bo'lib, u faqat ushbu qiyinchilikni aniqlash va anglash sharti bilan yengiladi. Shuning uchun pedagogik refleksiya — bu nafaqat o'qituvchining o'ziga nisbatan reflektiv pozitsiyasi, balki professional o'z-o'zini anglash bo'lib, unda refleksiya muammoni hal qilish vositasi va usuli sifatida namoyon bo'ladi. Reflektiv kompetensiya professional vazifalarni hal qilishda ma'lum pedagogik strategiyalarda (individual-shaxsiy usullarda) amalga oshiriladi: produktiv va noproduktiv (kontrproduktiv) strategiyalar.

- Produktiv strategiyalar professional-pedagogik vaziyatlarni hal qilishda analitik xususiyatga ega. O'quv vazifalarini yoki professional-pedagogik faoliyatni bajarish jarayonida bunday strategiya pedagogik vaziyatning eng mayda detallarini ko'rishga imkon beradi, farqi shundaki, ular faqat vaziyatni umumiy qabul qiladigan strategiyalardan ajralib turadi. Shuningdek, produktiv strategiyaga moslashuvchanlik, emotsional barqarorlik, konservativlik (radikalizm emas) va sezgirlik xosdir.

- Noproduktiv (kontrproduktiv) strategiyalar professional-pedagogik vaziyatlarni hal qilishda farq qiluvchi xususiyatlarga ega: ularning ko'rinishi notayin (sintezlangan) qabul qilish, qattiqlik (fikrlashda inertlik), impul'sivlik, emotsional barqaror emaslik, radikalizm va qaror qabul qilishda qattiqlik bilan tavsiflanadi. Kasbiy refleksiyaning o'rganish borasida rus psixologiyasida tafakkur va ijodining reflektiv mexanizmlari, darajalari, shakllari va tipologiyasi haqidagi umumiy qabul qilingan g'oyalar bilan belgilanadigan tadqiqot yo'nalishlarining xilma-xilligi va ko'p qirraliligi mavjud (B.Z.Vulfov, E.F.Zeyer, A.V.Karpov, A.K.Markova, V. A. Tolochev, O. N. Rodina, A. M. Stolyarenko va boshqalar) [7]. Jumladan, O.N.Rodina reflektivlikni kasbiy faoliyat sub'yekti sifatida insonning eng

muhim kasbiy muhim sifatlaridan biri deb biladi. U kasbiy faoliyat muvaffaqiyatining umumiy bahosining tashqi mezoni (boshqa insonlar tomonidan berilgan baholar) va ichki (o'z faoliyatining muvaffaqiyatini o'zi baholashi) o'z ichiga olishi kerakligiga e'tibor qaratadi. O.N.Rodinaning fikrlariga ko'ra, refleksivlik darajasi yuqori bo'lgan inson o'z ishini yetarlicha baholay oladi va tashkil qiladi hamda natijada muvaffaqiyatga erishadi. Akmeologiyada refleksivlik shaxsning refleksiv madaniyati kontekstida o'rganiladi. Mutaxassis shaxsining ajralmas sifati sifatida refleksiv madaniyatni rivojlantirish refleksiv tayyorgarlik, refleksiv kompetensiya, refleksiv-ijodiy imkoniyat va refleksiv qobiliyat kabi dinamik komponentlarni tarbiyalashdan iborat (Derkach A.A., I.N. Semenov, A.F. Balayeva, G.I., Davidov T.G. Boldina, Stepanov S.Yu.). Refleksiv qobiliyatlar o'zini o'zi hurmat qilish, o'zini o'zi nazorat qilish, o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi korreksiya qilish o'rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi (I.N. Semenov). Refleksivlik odatda shaxsning markaziy kasbiy muhim sifatlaridan biri hisoblanadi. Refleksiv kompetensiya inson faoliyatining muvaffaqiyatini belgilovchi omil sifatida qaraladi. Bu uning ijodiy tafakkurini tashkil etishga, muammoli vaziyatlarni yechishni mahoratini oshirishga va yangi mutaxassisliklarni egallashga yordam beradi. Bu esa refleksiyani shaxsning shaxsiy va kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish mexanizmi, malakali mutaxassis, ijodiy o'zini o'zi anglash mexanizmi sifatida qarashga imkon beradi (B.Z.Vulfov). “Pedagogning kasbiy refleksiyasi” atamasi psixologiya fanida nisbatan yaqinda paydo bo'ldi. B.Z.Vulfovning fikriga ko'ra, o'qituvchi shaxsning refleksivligi har qanday kasbiy refleksiya bilan bir xil, ammo mazmuni bo'yicha pedagogik faoliyatning xususiyatlariga, birinchi navbatda, o'zining pedagogik tajribasi bilan bog'liqdir

Aksariyat olimlar pedagogik faoliyat sub'yektining kasbiy o'zini o'zi anglashini tavsiflash maqsadida “pedagogning kasbiy refleksivligi” atamasidan foydalanadilar. Shu bilan birga, I.V.Orlova ta'kidlaganidek, pedagogning kasbiy refleksivligi o'qituvchining o'z faoliyatiga nisbatan analitik pozitsiyasini egallash qobiliyatida namoyon bo'ladigan murakkab psixologik hodisa sifatida tushuniladi. Jumladan, A.A. Bizyayeva pedagogik refleksiyaning ikki darajasini belgilaydi:

1) refleksiv ongning konstruktiv-ijro etuvchi, motivasion, prognostik jihatlarini o'z ichiga olgan operativ;

2) o'qituvchining o'z faoliyatidagi kasbiy va shaxsiy sub'yektiv yo'nalishini va refleksiv vaziyatda shaxsiy, sub'yektiv ishtirokini tavsiflovchi shaxsiy darajadagi kasbiy mahoratini belgilaydigan bilimlarni o'z ichiga oladi. Ma'lumki, psixologiyaga oid ilmiy va ilmiy-uslubiy adabiyotlarda refleksiya kognitiv,genetik, shaxsiyatli va kommunikativ jihatlarda o'rganilgan. Xususan, zamonaviy psixologik lug'atda refleksiyaning o'zini o'zi nazorat qilish va boshqarish jarayoni bilan bog'liqligi ta'kidlangan: «Psixik o'zini o'zi boshqarish – bu tizim faolligini boshqarish darajasining biri bo'lib, borliqni aks ettirish va modellashtirish, jumladan, refleksiya vositalarini qo'llashda namoyon bo'ladi» Amaliy psixologiyadan lug'atda “Refleksiya” tushunchasiga “shaxsga o'z qadriyatlarini va munosabatlarini qayta qurish va o'zgartirish uchun yangi asoslar topish imkonini berib, nafaqat o'zi-o'zini anglashni, balki boshqalarni tushunish va baholash jarayonlarini ham o'z ichiga oladi. U inson ongini, qadriyatlarini va fikrlarini boshqa shaxslar, guruhlar, jamiyat va hatto umuminsoniy qadriyatlar bilan taqqoslashni ta'minlaydi. Kundalik hayotda ijtimoiy refleksiya insonga qandaydir voqea yoki hodisani boshidan o'tkazish, uni "ichki dunyosi" orqali o'tkazib berish imkonini beradi”, - deb ta'rif berilgan.

Refleksiya barcha psixik funksiyalarni integratsiyalash mexanizmi bo'lib, kasbiy faoliyat bilan uzviy bog'liq holda amalga oshadi. Bunda kasbiy faoliyatdagi o'zgarishlar refleksiyadagi o'zgarishlarga olib keladi va aksincha bo'lishi mumkin. Refleksiya psixik jarayon sifatida integral psixik xususiyat, ruhiy holat, qobiliyat bo'lib, uning mohiyati va o'ziga xosligi – bir vaqtning o'zida jarayon, xususiyat va holat sifatida namoyon bo'lishidadir. Aynan shu modullarning sintezi refleksiyaning sifat ko'rsatkichini tashkil etishi mumkin bo'lib insondan o'zi va boshqalarga nisbatan shaxsiy va intellektual o'sishni talab qiladigan anglash jarayoni hamda o'zaro munosabatlar jarayonida mavjud tajribaga qaraganda yanada murakkabroq tajribani tushunishga va o'zlashtirishga imkon beradigan fikrlashning qat'iy tizimli usulidir. Refleksiya insonga rivojlangan intellektning muhim tarkibiy qismi sifatida o'zining tashqi olam bilan predmetli-ijtimoiy munosabatlarini tahlil qilish, mushohada yuritish va qayta fikrlash qobiliyatidir. Pedagogikadan qomusiy lug'atda “refleksiya” – (lot. reflexio - ortga qaytish, aks etish) pedagogik jarayon sub'yektlarining o'z xatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi, anglashga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida bir shakli deb ta'rif

berilgan. Pedagogik refleksiya, asosan, tashkiliy va faoliyat sohasi bilan bog‘liq (o‘qituvchi nima qilgan, o‘z harakatini qanday tashkil qilgan, muhit va talabalar) bo‘lib, pedagog o‘z kasbiy faoliyatini baholashi uchun tashqi harakatlar refleksiyasi taklif qilinadi.

Pedagogik refleksiya – bu qandaydir kasbiy muammoni fikran tahlil qilish jarayoni bo‘lib, mavjud muammoning mohiyatini shaxsiy idrok qilish va yechimini topishning yangi istiqbollari aniqlash imkonini beradi. Pedagogik refleksiyaning asosiy xususiyatlari o‘z pedagogik tajribasini anglash, o‘z pedagogik faoliyati muvaffaqiyati mezonlarini ishlab chiqish hamda zamonaviy ta’limda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni tahlil qilishdan iborat. Bunda kasbiy-madaniy refleksiv ko‘nikmalar shaxsni har tomonlama rivojlantirish vositasi bo‘lib o‘qituvchi va talabalarining ta’lim jarayonida o‘z holatlarini chuqurroq anglashlari hamda uni yanada samarali bo‘lishini ta’minlashning murakkab va maqsadli jarayonini amalga oshirishlarini anglatadi. Pedagogik refleksiyaning o‘ziga xos ma’nosi shaxsning o‘z ongiga (kognitiv, motivasion va boshqa jihatlariga) murojaat qilish amaliyoti uni kasbiy kompetentligining ortishiga olib kelishida, mazmuni esa uni sohalari (bilish, faoliyat va his-tuyg‘ular)ning birligi sifatida tasavvur qilishda o‘z aksini topadi. Pedagogik refleksiyaning pedagogikada talqin etilgan yo‘nalishlari D.U. Xalbotayeva tomonidan taklif qilingan:

1. Refleksiya muayyan xodisalar, shart-sharoitlar, jarayonlarni tahliliy jihatdan o‘rganishni ifodalaydi.

2. Refleksiyaning ob’ektlari shaxsning ta’lim-tarbiyasiga va madaniy-kasbiy rivojlanishiga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatadi.

3. Refleksiya jarayonlari bo‘lajak mutaxassisning kasbiy-madaniy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, mavjud kamchiliklarni aniqlash va korreksiyalash imkonini beradi.

Refleksivlik talabalarda o‘zi-o‘zini boshqarishning rivojlanish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi – emosiyalarni boshqarishda o‘ziga ishonch hissini shakllantiradi, empatiyaning namoyon bo‘lishini optimallashtirib xatti-harakatlarning adekvat usullarini tanlashlariga yordam beradi. Shaxsda o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish tajribasi yuzaga kela boshlaydi. Bu qadriyatli fikrlash jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u shaxsni tashqi shart-sharoitlarga moslashishiga va, eng muhimi, psixikaning boshqa imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlarni ham yaratib beradi. W.M.Roth pedagogning refleksiyadagi muammosini uning o‘ziga va talabalariga Refleksiya mexanizmi insonning o‘z ongi mazmunini, faoliyatini qayta ko‘rib chiqishi va qayta tuzishi bo‘lib, bunda o‘zining kasbiy faoliyatini, shuningdek boshqa mutaxassislarning faoliyatini refleksiv baholay olish qobiliyati – bo‘lajak pedagoglarda shakllanishi lozim bo‘lgan kompetensiyalardan biri hisoblanadi.

oliy ta’limda tahsil olayotgan talabalarining refleksiv kompetentligi uning shaxsiy sifatlarining o‘zgarishiga olib keluvchi, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan hamda bir-birini to‘ldiruvchi va mustahkamlovchi jarayonlar majmuasi bo‘lib, ushbu jarayonlar bo‘lajak pedagoglarda kasbiy-shaxsiy sifatning shakllanishi va uzluksiz rivojlanishiga xizmat qiladi.

Psixologiyada refleksiv kompetentlik ko‘p qirrali va murakkab tuzilma sifatida qaraladi. Pragmatik yondashuv, hamda refleksiv kompetensiyalarni pedagogik-psixologik jihatdan tahlil qilib o‘rganib chiqar ekanmiz, bu tushunchalarni juda chuqur ahamiyat kasb etganini ko‘rishimiz mumkin. Xulosa qilib aytganda, pragmatik yondashuv ta’lim jarayonini amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘lash orqali o‘quvchilarda bilimlarni real hayotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ushbu yondashuv o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirib, uning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, refleksiv kompetensiyalar shaxsning o‘z faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga yo‘naltirilgan muhim psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Refleksiya jarayoni orqali o‘quvchi o‘z bilim darajasini anglaydi, xatolarini aniqlaydi va kelgusidagi rivojlanish strategiyasini belgilaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pragmatik yondashuv va refleksiv kompetensiyalarning o‘zaro integratsiyasi ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ularning uyg‘un qo‘llanilishi natijasida o‘quvchilarda nafaqat chuqur bilim, balki o‘zini boshqarish, tanqidiy va ijodiy fikrlash kabi muhim kompetensiyalar ham shakllanadi. Demak, zamonaviy ta’lim tizimida pragmatik yondashuv asosida refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirish pedagogik faoliyatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Bu esa har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlovchi va raqobatbardosh shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xoliqov, A. *Pedagogik mahorat asoslari*. — Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
2. To‘xtaxodjayeva, M. *Pedagogika nazariyasi va tarixi*. — Toshkent, 2012.
3. Выготский Л. С. *Мышление и речь*. — Москва: Педагогика, 1982.
4. Леонтьев А. Н. *Деятельность. Сознание. Личность*. — Москва: Политиздат, 1975.
5. Рубинштейн С. Л. *Основы общей психологии*. — Санкт-Петербург: Питер, 2000.
6. Давыдов В. В. *Теория развивающего обучения*. — Москва: Интор, 1996.
7. Зимняя И. А. *Педагогическая психология*. — Москва: Логос, 2004.
8. Сластенин В. А. *Педагогика*. — Москва: Академия, 2002.
9. Хуторской А. В. *Ключевые компетенции и образовательные стандарты*. — Москва, 2003.
10. Piaget, J. *The Psychology of Intelligence*. — London: Routledge, 1950.
11. Zimmerman, B. J. “Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview.” // *Theory Into Practice*, 2002.
12. Moon, J. A. *Reflection in Learning and Professional Development*. — London: RoutledgeFalmer, 1999.

Ikramova Aziza Aminovna , Sun'iy intellekt asosidagi adaptiv o'rganish tizimlari orqali talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash	136
Jumaniyozova Shahnoza Rajabboy qizi , Alohida ehtiyojmand bolalar bilan ishlashning psixologik xususiyatlari	142
Jumayeva Azizabonu Mo`min qizi , Pragmatik yondashuv orqali talabalarni refleksiv kompetensiyalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	147
Jumayeva Habiba G'aforovna , Ta'lim jarayonida geymifikatsion texnologiyalar vositasida talabalarning o'z-o'zini baholash kompetensiyasini rivojlantirish	156
Hakimova Nargiza Supxonovna, Kattayeva Mehrangiz Nabiyevena , Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalar	162
Nadirxanovna Nozima Alisherovna , Yozma madaniyatlararo muloqotni o'rgatishda talabalarning sotsiologiyistik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	167
Очиллов Фарход Эгамбердиевич , Трансформация семейных традиций и их влияние на патриотическое воспитание молодого поколения в Узбекистане	171
Qurbonova Nafisa Saidjonovna , Differensiyal ta'lim va uning pedagogik ahamiyati	178
Qo'ldoshev Mehriddin Avezmurodovich , Ahmad Donish ma'rifatparvarlik g'oyalari asosida yoshlarda ma'naviy-axloqiy kamolotni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	182
G.V. Izbullayeva, Baxodirova Xalimabonu Baxodirovna , Bo'lajak o'qituvchilarning media-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	187
Qo'chqorov Nodir Bozorovich , Talabalarda iqtisodiy savodxonlik madaniyatini shakllantirishning innovatsion va intensiv ko'rinishlari	192
Sadullayeva Zarnigor To'liqinjonovna , Talabalarning o'z-o'zini tarbiyalash darajasini diagnostika qilish va monitoring tizimi	197
Safarova Nigora Nasillovna , Transformativ ta'limning metodologik asoslari: Tanqidiy pedagogika, refleksiv yondashuv va sotsiokonstruktivizm integratsiyasi	204
Teshayeva Dilnoza Chori qizi , Talabalarda ekologik mas'uliyat rivojlanishining pedagogik-psixologik omillari	210
D.I. Normatova , Ingliz tili o'qituvchilarini kreativ yondashuv asosida maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	217
Jumayeva Habiba G'aforovna , Ta'lim jarayonida geymifikatsion yondashuv orqali talabalarning evristik-kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	222
Raximbayeva Gulyora Ulug'bekovna , Talabalarda media madaniyat va ijtimoiy identifikatsiya o'rtasidagi bog'liqlik	228
Hamdamova Nigora Olimovna , Pedagogical approaches and methods in understanding semantic content	234
Yaxyayeva Shoiraxon Toxirboyevna , Milliy kontent vositasida bolada tahliliy fikrlashni shakllantirish metodikasi	240
Filologiya fanlari	
Зиядуллаева Гульчехра Фатилло Кызы , Семантические синонимы глагола "Пить чай" И их стилистические особенности	245
Choriyeva Mehriniso Qiyomiddinovna , XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro adabiy muhiti va Abdurahmon Tamkin Buxoriyning adabiy merosi	250
Axmedova Dildora Bahodirovna, Jo'rayeva Mohigul Baxtiyor qizi , O'quvchilarning nutqiy etiket kompetensiyasini rivojlantirish masalalari	255
Ahatova Durdona Davron qizi , Omon Muxtor hikoyalaridagi badiiy zamon va inson tasvirining o'ziga xosliklari	260
Baxtiyorova Durdona Ixtiyor qizi , "Korpus texnologiyalari va sun'iy intellekt integratsiyasi asosida ingliz tilida og'zaki nutq hamda o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish"	264
Nosirova Dilfuza Mustafoyevna , Masallarning kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari	271
Nosirova Nodirabegim Nodirovna , Til o'rganish jarayonida sun'iy intellektning integratsiyasi: Lingvistik kompetensiyani shakllantirish, o'quv jarayonini shaxsiylashtirish va ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari	275
To'raboyeva Muqaddas, Pirimova Madina Ramazonovna , Ona tili o'qitish metodikasining zamonaviy konsepsiyasi: Taqiqotlar va yondashuvlar (alijon hamroyevning ilmiy maktabi misolida)	279
Ijtimoiy fanlar	